



THE COLONIAL POLICY OF TSARIST RUSSIA TOWARD THE LOCAL AND RESETTLED POPULATIONS OF KARAKALPAKSTAN

Jangabaev Alisher Karjaubaevich

Master's Degree Student (2nd Year), Department of History
Karakalpak State University

E-mail: jangabaevaliysher@gmail.com, Tel: +998 (90) 700-48-07

G. Seydametova

Scientific Supervisor: Associate Professor, PhD
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19216775>

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2026

Accepted: 24th March 2026

Online: 25th March 2026

KEYWORDS

*Karakalpakstan, Ural
Cossacks, fishing, colonial
policy, demography, Amu
Darya, Aral Sea.*

ABSTRACT

The article is devoted to the colonial policy of Tsarist Russia in Karakalpakstan, particularly the relations between the local population and the resettled people. It analyzes the main issues of the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, such as the conquest of Karakalpakstan, the resolution of land issues, demographic changes, and the formation of social strata. The study highlights the restriction of land ownership rights of the local population, the support given to resettled Cossacks and Russian peasants, the struggle for water resources, and the causes of conflicts between different peoples. The main purpose of the article is to analyze the impact of the colonial policy of the Russian Empire in Karakalpakstan on socio-economic and political relations among peoples, thereby revealing important aspects of the region's history.

PODSHO ROSSIIYASINING QORAQALPOG'ISTONNING MAHALLIY VA KO'CHIRIB KELTIRILGAN XALQLAR BILAN BOG'LIQ KOLONIAL SIYOSATI

Jangabaev Alisher Karjaubaevich

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti Tariyx jónelisi 2-kurs magistranti

e-mail: jangabaevaliysher@gmail.com, Tel:(90) 700-48-07

G. Seydametova

Ilmiy basshi: doc. PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19216775>

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2026

Accepted: 24th March 2026

Online: 25th March 2026

ABSTRACT

Maqola Podsho Rossiyasining Qoraqalpog'istonda amalga oshirgan mustamlakachilik siyosatiga, ayniqsa mahalliy xalq bilan ko'chirib keltirilgan xalqning munosabatlariga bag'ishlangan. Unda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Qoraqalpog'istonni bosib olish, yer masalalarini hal qilish, demografik o'zgarishlar va



KEYWORDS

Qoraqalpog'iston, ural kazaklari, baliqchilik, mustamlakachilik siyosati, demografiya, Amudaryo, Orol dengizi.

ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi kabi asosiy masalalar tahlil qilinadi. Mahalliy aholining yerga egalik qilish huquqlarining cheklanishiga uchrashi, ko'chib kelgan kazak va rus dehqonlarining qo'llab-quvvatlanishi, suv resurslari uchun kurash va xalqlar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari ko'rsatilgan. Maqolaning asosiy maqsadi - Rossiya imperiyasining Qoraqalpog'istondagi mustamlakachilik siyosatining xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga ta'sirini tahlil qilish, shu orqali mintaqa tarixining muhim tomonlarini yangidan ochib berishdan iborat.

Metodologiya: Qoraqalpog'iston XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgach, mintaqadagi etnik guruhlariga nisbatan mustamlakachilik siyosati kuchaydi. Mustamlaka ma'muriyati, asosan, rus muhojirlarini mintaqaga ko'plab joylashtirish orqali demografik muvozanatni o'zgartirishga intildi.

Bunday siyosat, bir tomondan, yer masalalarida mahalliy aholi bilan ko'chib kelganlar o'rtasida nizolarni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan yomonlashuviga olib keldi. Mahalliy etnik guruhlariga nisbatan yana bir siyosat - ularning tillari va madaniy xususiyatlarini kamsitib, rus tili va madaniyatini ustun qo'yish edi.

Bu siyosat mahalliy ziyoli qatlamning noroziligini keltirib chiqarib, XX asr boshlarida milliy uyg'onish harakatlari (jadidchilik) ning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Mustamlakachilik siyosati oqibatida etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, mintaqada ijtimoiy va siyosiy beqarorlik vujudga keldi.

Podsho Rossiyasining Qoraqalpog'istondagi etnik guruhlar bilan bog'liq mustamlakachilik siyosati,

asosan, hududni o'z tarkibiga qo'shishni va mustahkamlashni maqsad qilgan edi. Rus hukumati mahalliy xalqlarni, shu jumladan qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa etnik guruhlarini boshqarish uchun alohida-alohida strategiyalarni qo'lladi.

Rossiya imperiyasi mahalliy boshliqlarni o'ziga jalb qilish orqali siyosiy barqarorlikni ta'minlashga urindi. Mahalliy zodagonlarga lavozimlar berilib, ularning Rossiya hukumatiga sadoqati sotib olingan. Bu strategiya mahalliy aholi orasida ajralishni vujudga keltirdi va Rossiyaga qarshi potensial qarshiliklarni kamaytirdi.

Chetki hududlarni idora etish maqsadida imperatorlik hukumat ichki ishlar vazirligi o'rniga harbiy idoraga bo'ysunuvchi maxsus muassasalar barpo etdi. O'rta Osiyoda shakllantirilgan davlat tuzilmalari va boshqaruv tamoyillari Rossiya imperiyasining siyosiy maqsadlarini to'liq aks ettirgan holda, qat'iy markazlashuv va byurokratik boshqaruvga asoslangan edi.

Y. Dosumovning tasdiqlashicha, 1886-yildagi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq davlat boshqaruvi tuzilishiga o'lka, viloyat va uyezd darajasida



tayinlanadigan podshoh hokimiyati, shuningdek, nomiga saylanadigan bo'lis va qishloq hokimiyati kirgan. Bu tizim mintaqada imperiya manfaatlarini nazorat qilish va amalga oshirishni ta'minlagan[1:41].

Podshoh hokimiyatining boshida turadigan general-gubernator Turkiston o'lkasining eng yuqori lavozimli shaxsi sifatida barcha harbiy va fuqarolik hokimiyatini o'z qo'lida jamlagan. U imperator tomonidan tayinlanib, katta hukmronlik huquqlariga ega bo'lgan. Viloyatlarni viloyatlarning harbiy gubernatorlari boshqargan, ular ham imperator tomonidan tayinlangan hamda tegishli viloyat hududida harbiy va fuqarolik hokimiyatini amalga oshirgan. Uyezdlarni uyezd boshliqlari boshqargan, ular viloyatlarning harbiy gubernatorlari tomonidan tayinlangan hamda o'z hududlaridagi vaziyatga javobgar bo'lgan.

Bo'lis va qishloq hokimlari esa, mahalliy aholi tomonidan saylangan. Biroq ularning faoliyati podsho ma'muriyati tomonidan qattiq nazorat qilinib, ularning qarorlarini tasdiqlash orqali boshqarilgan. Bu tizim bir tomondan mahalliy aholining o'zini o'zi boshqarishda cheklangan ishtirokini ta'minlasa, ikkinchi tomondan imperiya hokimiyatining o'lka ustidan nazoratini kuchaytirdi.

Shunday qilib, "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" mintaqadagi siyosiy va boshqaruv tizimining asosini yaratdi. Bu tizim Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qilib, mahalliy aholining ishtirokini cheklash orqali imperiyaning hukmronligini ta'minladi.

Iqtisodiy siyosat, asosan, mintaqaning tabiiy resurslarini ekspluatatsiya qilishga qaratilgan edi. Paxta yetishtirish kengaytirildi, bu esa mahalliy dehqonlarning Rossiya bozoriga qaramligini oshirdi. Yerlarning ko'pchiligi rus ko'chib keluvchilarga berildi, bu esa mahalliy aholining yerga bo'lgan huquqlarini chekladi va ijtimoiy ziddiyatni kuchaytirdi.

O'lkaga ko'chirib keltirilgan Ural kazaklariga ham bir qator yengilliklar berildi. Ular asosan baliqchilikni asosiy kasbiga aylantirdi. Baliq resurslari asosan Orol dengizining janubiy qismida, Mo'ynoq yarim oroli hududida, Amudaryo deltasi va ichki ko'llarda to'plangan. Mehnat taqsimotining kuchayishi va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi natijasida baliqchilik va baliqni qayta ishlash hudud aholisining: qoraqalpoqlar, qozoqlar, o'zbeklar va ko'chmanchi Ural kazaklarining asosiy kasbiga aylandi.

Y. Dosumovning aytishicha, Uraldan ko'chib kelganlar asosan Amudaryo, ichki ko'llar va Orol dengizida baliq ovlash bilan shug'ullanganlar. "Baliqchilik botqoqlariga to'planib, ular Ko'kdaryo va Ulkandaryoning quyilish joyida cholanlar qurib, u yerda baliqni ozroq tuzlab, har xil baliq mahsulotlari: uvildiriq, baliq, quritilgan baliq, baliq moyi, yelim va boshqalarni tayyorlay boshladilar" [1:24].

Mahalliy xalq bilan Ural kazaklari orasidagi bunday munosabatlar qoraqalpoqlardan ko'chirib keltirilganlarning foydasi uchun unumdor yerlarni tortib olmasligi va mahalliy xalqni Turkistonning boshqa viloyatlarida bo'lganidek xalq bosib olingan joylardan haydab chiqarmasligi



bilan tushuntiriladi. Ural mehnatkash kazaklari bilan mahalliy aholi o'rtasidagi aloqa iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida ham mustahkamlandi[2:16].

Bunday vaziyatda qoraqalpoqlar Ural kazaklari bilan o'zaro kelishuvda yashash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu holat qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolining yaxshilanishiga va madaniy aloqalarining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Ural kazaklari ham, o'z navbatida, qoraqalpolardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish orqali iqtisodiy foydaga ega bo'ldi. Qoraqalpoqlar kazaklarning dehqonchilik tajribasidan o'rganib, o'z qishloq xo'jaligini rivojlantirishga hissa qo'shdi.

Rossiya imperiyasining Amudaryo mintaqasida Ural kazaklarining iqtisodiy ahvolini kuchaytirishga qaratilgan shovinistik siyosati kazaklarning qoraqalpolarni baliq ovlashga faol jalb etishiga olib keldi. Biroq, bu hamkorlikda qoraqalpoqlar teng huquqli sherik sifatida emas, balki asosan yollanma ishchi yoki mardikor sifatida harakat qilgan. Faqat kamdan kam hollardagina qoraqalpoqlar mustaqil baliqchi bo'lib, o'z mehnat qurollariga ega bo'lgan. Shu bilan birga, yollanma yoki ulushli ishlarga murojaat qilmagan kazaklar ham oz edi[1:11].

Qizig'i shundaki, 1875-yili Amudaryo deltasiga surgun qilingan kazaklar u yerda shahar tashqarisidagi mashhur Urallik savdogar Vanyushinning (kazak bo'lmagan) baliq ovlash guruhini topdi, u baliq ovlashni ruslar tomonidan o'ng qirg'oq bosib olinishidan oldin boshlagan[2:158].

Ammo bu savdogarning kapitali, kemalari va qurollari bor edi, kazaklarda

esa hech narsa yo'q edi. Avvaliga ularning ahvoli og'ir, umidsiz holatda edi. Ochdan o'lmaslik uchun ular mahalliy aholini talab, mollarini o'g'iray boshladi. Mahalliy xalq Podsho hukumatiga shikoyat qilib, o'zlari ham hujumga o'tdi. Lekin tez orada hammasi o'z o'rniga tushib ketdi. Uralliklar tezda atrofga moslashib, ba'zilar Xiva bilan savdo qildi, boshqalari qayiq'larga olib Amudaryo bo'ylab yo'lovchilarni va yuklarni tashidi, daryodan baliqlarni ovladi. O'z turmushini tartibga solgandan keyin qirg'iz-qaysoqlar (qozoqlar) qoraqalpoqlar va o'zbeklar bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini o'rnatdi... Ko'chirib keltirilganlar o'zining daryo baliqchiligini kengaytirib qozoqlar bilan qoraqalpolarning qo'l ostida yollanma ishchi kuchi sifatida baliq ovladi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki ularning shaxsiy baliq ovlash qurollari bilan zarur tajribasi bo'lmagan[2:159].

Bu ikki xalq o'rtasidagi yaxshi munosabatlar qoraqalpoq yerlarida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday o'zaro hurmat va tushunish muhiti qoraqalpoq va qozoq madaniyatlarining bir-biriga singib ketishida ham katta rol o'ynadi.

Mahalliy xalq bilan Ural qozoqlari orasidagi bunday munosabatlar qoraqalpolardan ko'chirib keltirilganlarning manfaati uchun unumdor yerlarni tortib olmasligi va mahalliy xalqni Turkistonning boshqa viloyatlarida bo'lganidek xalq bosib olingan joylardan haydab chiqarmasligi bilan izohlanadi. Ural mehnatkash qozoqlari bilan mahalliy aholi o'rtasidagi aloqa iqtisodiy va madaniy



munosabatlarning rivojlanishi natijasida ham mustahkamlandi [1:40].

Natijalar: Shunday qilib, Ural qozoqlari bilan qoraqalpoqlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat birgalikda yashash tamoyillariga, balki iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga ham asoslangan edi.

Podsho Rossiyasining Qoraqalpog'istonga nisbatan mustamlaka siyosati mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Imperiya Qoraqalpog'iston hududini o'zining harbiy-strategik va iqtisodiy manfaatlariga ko'ra ishlatgan. Mahalliy aholining yerlarini tortib olish, soliqlarning oshirilishi va majburiy ishlar mahalliy aholining ahvolini og'irlashtirgan.

Rossiya imperiyasi ko'chirib keltirilgan xalqlarni Qoraqalpog'iston hududiga joylashtirish orqali demografik vaziyatni o'zgartirishga uringan. Kazaklar hamda Rossiyadan ko'chirilgan boshqa xalqlar mahalliy aholi bilan yer va suv resurslari uchun raqobatlashishga majbur bo'ldilar. Bu holat mahalliy aholining noroziligini kuchaytirdi va ijtimoiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi.

Mustamlaka siyosati mahalliy aholining madaniy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Rossiya maktablari va cherkovlari ochilib, rus tili va madaniyati tarqala boshladi. Mahalliy aholining urf-odatlarini va tillari kamsitildi. Bu Qoraqalpog'iston xalqining o'zligini saqlab qolish uchun kurashiga sabab bo'ldi.

XIX asrning oxiriga kelib, Rossiya imperiyasi Qoraqalpog'istonda o'z hukmronligini mustahkamlash

maqsadida bir qator islohotlar o'tkazdi. Ushbu islohotlar orqali mahalliy boshqaruv tizimini qayta tashkil etish, sud tizimlarini ruslashtirish hamda ta'lim sohalarini rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Ammo bu islohotlar mahalliy aholining manfaatlarini to'la qondirmadi va ularning noroziligini bosib tinchlantira olmadi.

XX asrning boshlarida Qoraqalpog'istonda milliy uyg'onish harakati kuchaydi. Mahalliy ziyolilar (jadidlar) aholini o'z huquqlarini himoya qilishga chaqirdilar hamda milliy madaniyatni rivojlantirish uchun harakat qildilar. Bu harakat Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turishga qaratilgan edi.

Qoraqalpog'iston tarixi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati mahalliy aholi taqdiriga qanday ta'sir etganini ko'rsatuvchi yorqin misol bo'la oladi. Garchi mustamlakachilik davri aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini og'irlashtirib, madaniy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, mahalliy aholining o'zligini saqlab qolish hamda ozodlik uchun kurashish ruhini so'ndirmagan.

Madaniy sohada ham assimilyatsiya siyosati olib borildi. Rus tili ta'lim tizimida joriy etildi va rus madaniyati mahalliy aholi orasida keng tarqaldi. Diniy erkinlik rasman himoya qilinsa-da, amalda islom diniy institutlari nazorat ostida bo'ldi va ularning ta'siri cheklandi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Qoraqalpog'istonda etnik guruhlarining joylashuvi va demografik o'zgarishi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Rossiya podsholigi



mintaqaga o'zining siyosiy va iqtisodiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ko'chish siyosatini yuritdi. Bu siyosat asosan slavyan xalqlarini, xususan rus va ukrain dehqonlarini Qoraqalpog'istonga ko'chirishga qaratildi.

Shuning uchun, ko'p qoraqalpoqlar o'z unumdor yerlaridan ketishga va boshqa joylarda yashashga majbur bo'ldi. Ularning bir qismi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullana boshladi. Ko'pchiligi esa Amudaryo bo'limi boshlig'ining ruxsati bilan yoki ruxsatisiz Amudaryoning o'ng qirg'og'iga o'tib ketdi. Bu bo'lim boshlig'ining ma'lumotiga ko'ra, XIX asrning 80-yillarida Xiva xonligidan Amudaryo bo'limining Chimboy uchastkasiga 700 ga yaqin qoraqalpoq oilasi o'zboshimchalik bilan ko'chgana [3:58].

Ko'chirilgan slavyan xalqlari uchun yangi qishloq xo'jaligi yerlari ajratildi, bu esa mahalliy aholining yer resurslariga bo'lgan imkoniyatlarini chekladi. Yer masalalari tufayli mahalliy aholi bilan kelgindilar o'rtasida kelishmovchilik va nizolar kelib chiqdi. Mustamlaka ma'muriyati mahalliy aholining manfaatlariga nisbatan ko'chirilgan xalqlarning manfaatlarini qo'llab-quvvatladi.

Rossiya imperiyasi, shuningdek, Qoraqalpog'istonda o'zining madaniy va til siyosatini yuritdi. Rus tili rasmiy til sifatida joriy etildi va rus maktablari ochildi. Bu esa mahalliy aholining o'z tili va madaniy xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatlarini chekladi. Mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining milliy o'zligini anglashiga ta'sir etib, ularning o'zligini saqlab qolish uchun kurashishiga sabab bo'ldi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda Qoraqalpog'iston, butun Turkiston o'lkasi singari, podsho Rossiyasidagi mavjud tartibga qarshi yo'naltirilgan "jinoyatlar" sodir etish bilan ayblangan odamlar ham kirgan har xil odamlarning surgun joyi bo'ldi. Ma'lumki, 1848-1849-yillari Qoraqalpog'istonning shimoliy qismida inqilobiy demokrat T. G. Shevchenko ishlagan. Orol ekspeditsiyasi tarkibida polyak ko'chmanchisi Foma Verner ham bor edi. 80-yillarda 13-Turkiston chiziqli batalonining birinchi rotasida ko'chmanchilardan o'tgan unter-ofitser Norbert Ivanovich Korzyuk-Zalevskiy xizmat qilgan. 1880-yilda u "taqiqlangan nashrlar va g'azabli mazmundagi targ'ibotlarni saqlagani va tarqatgani uchun" ayblanib javobgarlikka tortildi [6:10].

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Qoraqalpog'istondagi demografik o'zgarishlar, shuningdek, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yer tanqisligi va suv resurslari uchun kurash dehqonlarning turmush darajasi pasayib ketishiga olib keldi. Mahalliy kasanachilik va hunarmandchilik ham mustamlakachilik siyosati natijasida rivojlanishdan to'xtadi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati Qoraqalpog'istonda etnik guruhlarining joylashuviga, demografik o'zgarishiga va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mahalliy aholining yer resurslaridan cheklanganligi, til va madaniy tazyiq, iqtisodiy qiyinchiliklar mahalliy aholining milliy o'zligini anglashining rivojlanishiga sabab bo'ldi va ularni o'z huquqlari uchun kurashga chorladi.



XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning boshigacha bo'lgan oraliqda Qoraqalpog'istonda etnoslararo munosabatlarning o'zgarishi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar bilan belgilanadi. Rus podsholigining mintaqaga kirib kelishi, yangi boshqaruv tizimlarining joriy etilishi, yer-suv islohotlari va migratsiya jarayonlari etnik demografiyaga va etnoslar o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga katta ta'sir ko'rsatdi.

Dastlabki davrda rus va yevropalik ko'chirilganlarning kelishi bilan yangi etnik guruhlar paydo bo'ldi va ularning mahalliy aholi bilan integratsiyalashuvi muhim masala edi. Iqtisodiy faollikning ortib borishi, savdo-sotiqning rivojlanishi va hunarmandchilikning kengayishi etnoslar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirdi.

Biroq, mustamlakachilik siyosati mahalliy aholi manfaatlariga putur yetkazib, yer va suv resurslariga nizolarni keltirib chiqardi. Etnoslar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, mahalliy aholining siyosiy huquqlari cheklanganligi ham nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, mustamlaka davrida Qoraqalpog'istonda etnoslararo munosabatlar bir tomondan aloqalarning kuchayishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bahs-munozara va kelishmovchiliklarning ham kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu davrdagi etnik jarayonlar Qoraqalpog'istonning kelajakdagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

References:

1. Досумов Я. Очерки истории Каракалпакской АССР (1917-1927 гг.). – Ташкент: АН УзССР, 1960.
2. Короленко В.Г. (Савдронников). Уральцы в Туркестанском крае // Русское богатство. 1905. №6.
3. Кошчанов А. К истории ирригации в хивинском ханстве конца XIX— начала XX века. // Общественные науки в Узбекистане. Год издание восьмой 1964.
4. Курноскин С.П. Филин П.А. Очерки по истории судоходства уральских казаков. Москва, 2024.
5. Судаков С. Уральские казаки-старообрядцы Аму-Дарьинского оазиса (монография) Машинопись, 1933 г. «Оптима» - «Старый Уральскъ» г. Уральск, 2011.
6. Уббиниязов Ж. Борьба каракалпакского народа против социального и национальноколониального угнетения (конец XIX — начало XX в.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Нукус. 1969.